

Seulda O'zbekiston-Koreya turizm forumi bo'lib o'tdi

2024 3 Oktabr

Seulda "road show" tadbirlarining bir qismiga aylangan O'zbekiston-Koreya turizm forumi bo'lib o'tdi. Forum ishida Turizm qo'mitasi raisi Umid Shadiyev va O'zbekistonning Janubiy Koreyadagi elchisi Alisher Abdusalomov, shuningdek, Uzbekistan Airways aviakompaniyasining Janubiy Koreyadagi vakolatxonasi ishtirok etdi.

Forumning maqsadi O'zbekistonning sayyohlik salohiyati va madaniy merosini targ'ib qilish, shuningdek, ikki mamlakat sayyohlik kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashdan iborat edi.



Forumda Uzbekistan Airways vakillari aviakompaniyaning yoʻnalish tarmogʻiga toʻxtalib, aviaqatnovlarni kengaytirish rejalari haqidagi yangiliklar bilan oʻrtoqlashdi.



